# XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatimizni tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 252,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 24,6 mln. AQSh dollariga yoki 8,9 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**




*Ma’lumot uchun: Viloyat tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 104,7 mln. AQSh dollariga (9,1 % ga ko‘paygan) va import hajmi 148,0 mln. AQSh dollariga (18,4 % ga

XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 43,3 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 79,2 | 24,4 | 54,8 | 31,3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 40,5 | 6,4 | 34,1 | 16,0 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 30,0 | 29,8 | 0,2 | 11,9 |
| Turkiya | 25,8 | 10,6 | 15,2 | 10,2 |
| Qozog‘iston | 18,2 | 16,5 | 1,7 | 7,2 |
| Koreya Respublikasi | 14,9 | 0,2 | 14,7 | 5,9 |
| Turkmaniston | 5,6 | 2,5 | 3,1 | 2,2 |
| Ukraina | 4,0 | 1,2 | 2,8 | 1,6 |
| Germaniya | 2,3 | 0,3 | 2,0 | 0,8 |
| Tojikiston | 1,8 | 1,7 | 0,1 | 0,7 |

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Viloyat, jahonning 76 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (31,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (16,0 %), Qirg‘iz Respublikasida (11,9 %), Turkiyada (10,2 %), Qozog‘istonda (7,2 %), Koreya Respublikasida 5,9%), va Ukrainada (1,6 %) qayd etilgan.

XORAZM VILOYATI NING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI yanvar-iyul, mln. AQSh dollari

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (0,8 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (30,0mln. AQSh dollari), Tojikiston (1,8 mln. AQSh dollari), Turkiya (25,8 mln. AQSh dollari), va Eron (4,0 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 11 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | **43,3** | **43,5** | **79,2** |
| Eksport | 24,3 | 17,5 | 24,4 |
| Import | 19,0 | 26,0 | 54,8 |
| Saldo | 5,3 | -8,5 | -30,4 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **32,7** | **68,1** | **40,5** |
| Eksport | 5,4 | 3,7 | 6,4 |
| Import | 27,3 | 64,4 | 34,1 |
| Saldo | 21,9 | 60,7 | -27,7 |
| **Qozog'iston** | **13,0** | **21,0** | **34,7** |
| Eksport | 9,6 | 14,8 | 18,2 |
| Import | 3,4 | 6,2 | 16,5 |
| Saldo | 6,2 | 8,6 | 1,7 |
| **Koreya Respublikasi** | **1,0** | **11,7** | **14,9** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,2 |
| Import | 0,9 | 11,5 | 14,7 |
| Saldo | -0,8 | -11,3 | -14,5 |
| **Turkiya** | **10,7** | **25,6** | **5,6** |
| Eksport | 6,0 | 5,8 | 2,5 |
| Import | 4,7 | 19,8 | 3,1 |
| Saldo | 1,3 | -14,0 | -0,6 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **0,7** | **34,9** | **30,0** |
| Eksport | 0,2 | 34,3 | 29,8 |
| Import | 0,5 | 0,6 | 0,2 |
| Saldo | 0,3 | 33,7 | 29,6 |

**XORAZM VILOYATI NING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Litva** | **0,9** | **2,2** | **1,6** |
| Eksport | - | 0,1 | - |
| Import | 0,9 | 2,1 | 1,6 |
| Saldo | -0,9 | -2,0 | -1,6 |
| **Ukraina** | **2,6** | **33,2** | **4,0** |
| Eksport | 0,4 | 5,9 | 1,2 |
| Import | 2,2 | 1,7 | 2,8 |
| Saldo | -1,8 | 4,2 | -1,6 |
| **Latviya** | **4,8** | **14,7** | **2,5** |
| Eksport | - | - | 0,4 |
| Import | 4,8 | 14,7 | 2,1 |
| Saldo | -4,8 | -14,8 | -1,7 |
| **Eron** | **9,2** | **5,9** | **4,0** |
| Eksport | 7,8 | 4,0 | 3,1 |
| Import | 1,4 | 1,9 | 0,9 |
| Saldo | 6,4 | 2,1 | 2,2 |
| **Belarus Respublikasi** | **2,6** | **2,5** | **1,7** |
| Eksport | 0,8 | 1,3 | 0,5 |
| Import | 1,8 | 1,2 | 1,2 |
| Saldo | -1,0 | 0,1 | -0,7 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-iyul oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 55,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga shu davriga nisbatan 19,7 % ga oshgan.

# XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
(2020-yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida mamlakatning eksportiyorlar soni 172 tani tashkil etib, ular tomonidan 1,0 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 13,7 martaga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

**XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)**




- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar- 28,1 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari - 11,6 %
- Hayvon o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar-2,1 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari- 35,3 %
- Turli xil tayyor buyumlar -17,7 %
- Ichimliklar va tamaki-0,1 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar -
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar -0,4 %
- Mashinalar va transport asbob - uskunalari -
- Xizmatlar-4,7 %

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,3 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (35,3 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (2,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (28,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **104,7** | **77,0** | **27,7** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 29,4 | 26,4 | 3,0 | 28,1 | 34,9 | 10,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,03 | 0,03 | - | 0,1 | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 12,1 | 4,4 | 7,7 | 11,6 | 5,5 | 28,0 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,07 | 0,07 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 2,3 | 1,7 | 0,6 | 2,1 | 2,1 | 2,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,4 | 0,4 | - | 0,4 | 0,5 | - |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 36,9 | 22,3 | 14,6 | 35,3 | 29,0 | 52,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 18,4 | 18,2 | 0,2 | 17,7 | 23,7 | 0,7 |
| Xizmatlar | 4,9 | 3,4 | 1,5 | 4,7 | 4,3 | 5,6 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR’ATLARI (2020-yil yanvar-iyul)**

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, keyingi o‘rinlarda eksport hajmi bo‘yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallarga to‘g‘ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2019 yilning yanvar-iyniga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **109,1** | **99,8** | **147,7** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 52,2 | 51,7 | 70,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 103,6 | 103,6 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 136,1 | 140,7 | 133,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | - | - | - |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 93,7 | 195,6 | - |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 186,6 | 166,0 | 2,3 m. |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 6,3 m. | 6,9 m. | 4,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 8,2 m. | 8,1 | 70,8 m. |
| Xizmatlar | 58,9 | 62,1 | 81,2 |

EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-iyul, % da)

2020-yil yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli oʻzgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyuliga nisbatan, mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar, hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida oʻsish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 22,5 | 58,7 | 28,1 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,2 | - | 0,1 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari | 17,7 | 9,3 | 11,6 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | 0,0 | 0,9 | 0,0 |
| Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar | - | - | 2,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | 1,0 | 0,4 | 0,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 46,7 | 20,7 | 35,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,1 | - | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 4,3 | 2,4 | 17,7 |
| Xizmatlar | 7,5 | 7,6 | 4,7 |

## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020 yil yanvar-iyul)

| XSST bo‘limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2019-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 28,8 | 51,8 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 0,3 | 89,3 m. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 0,1 | 139,5 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 0,2 | 69,2 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 0,1 | 16,3 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 0,03 | 103,6 |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 7,5 | 142,9 |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 4,5 | 138,7 |
| Metall rudalari va metall parchalari | - | - |
| Qog‘oz massasi va makulatura | - | - |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 0,1 | 34,0 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Tabiiy yoki sun‘iy gaz | - | - |
| Elektr toki | - | - |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 0,07 | - |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 2,3 | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,1 | 4,8 m. |
| Noorganik kimyo moddalari | - | - |
| O‘g‘itlar | - | - |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | - | - |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 0,3 | - |

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020 yil yanvar-iyul)

| | | |
|---|---|---|
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | 34,7 | 176,0 |
| Rangli metallar | 0,2 | 72,2 |
| Cho'yan va po'lat | - | - |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 1,0 | 10,7 m. |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 1,0 | 15,2 m. |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | - | - |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | - | - |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | - | - |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari | 0,1 | - |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 0,1 | - |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 15,3 | 153 m. |
| Poyabzal | 1,5 | 168,8 |
| Har xil tayyor buyumlar | 1,0 | 89,6 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | - | - |
| Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar | 0,6 | - |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 2,6 | 84,2 |
| Safarlar (turizm) | 1,8 | 66,3 |
| Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari | - | - |
| Qurilish xizmatlari | - | - |
| Boshqa biznes xizmatlari | 0,5 | 35,5 |

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yil yanvar-iyuldagi 2,1martadan 2020-yil yanvar-iyulida 99,8 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 44,2 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




2020-yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 23,3 % i), Xitoy Xalq Respublikasi (6,1 %), Turkiya (10,2 %), Qozog'iston (15,7 %), Afg'oniston (0,7 %), Qirg'iz Respublikasi (28,5 %) va Tojikiston (1,7%) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 76,1 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyassining bir pog'onaga tushishi hisobiga, Qirg'iz Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 104 davlatdan 76 davlatga kamaydi.

XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI (yanvar-iyul)




| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Qirg‘iz Respublikasi | 34,3 | 29,8 | 178,2 m. | 96,1 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 17,4 | 24,4 | 71,6 | 140,2 | 2 | 2 |
| Qozog‘iston | 14,8 | 16,5 | 64,9 | 111,5 | 3 | 3 |
| Turkiya | 5,8 | 10,6 | 96,2 | 179,7 | 5 | 4 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 3,7 | 6,4 | 68,0 | 110,3 | 6 | 5 |
| Turkmaniston | 3,1 | 2,5 | 4,4 m. | 67,6 | 7 | 6 |
| Tojikiston | 0,2 | 1,7 | 33,5 | 54,8 | 8 | 7 |
| Ukraina | 5,9 | 1,2 | 13,6 | 6,0 m. | 4 | 8 |
| Germaniya | 0,1 | 0,3 | 3,5 m. | 150,0 | 9 | 9 |
| Koreya Respublikasi | 0,2 | 0,2 | 142,8 | 2,0 m. | 8 | 10 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

## XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020 yil yanvar-iyul, ulushi % da)

| XSST tarkibi | Rossiya Federatsiyasi | | XXR | | Turkiya | | Qozog'iston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| **Jami eksport** | **17,7** | **24,4** | **3,7** | **6,4** | **4,1** | **11,8** | **14,8** | **16,4** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1,9 | 5,6 | 0,3 | 0,3 | 0,0 | 1,8 | 14,8 | 15,4 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 0,2 | 0,1 | 1,4 | 0,7 | 2,2 | 2,6 | 0,0 | 0,0 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,7 | - | - | - | - | - | - | - |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | - | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 0,3 | - | - | - | - | - | - | 0,0 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 11,3 | 16,9 | 2,0 | 5,4 | 1,9 | 7,2 | 0,0 | 0,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | 0,0 | - | - | - | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,0 | 0,0 | - | - | - | 0,2 | 0,0 | 0,5 |
| Xizmatlar | 3,3 | 1,8 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 4,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,7 % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 32,9 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (53,6 %) va turizm (37,7 %) xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga telekommunikatsiya va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (8,7 %) ni tashkil etgan.

**MEVA - SABZAVOT MAHSULOT-LARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-iyul)**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 32,1 mln. dollar qiymatli 61,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 51,3 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 48,7 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 28,1 mln. AQSh dollariga teng 40,3 ming tonna sabzavot, shuningdek, 12,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 28,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 26,9% ni tashkil etdi.




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog‘iston (14,7 %), Rossiya Federatsiyasi (5,3 %),va Qirg‘iz Respublikasi (3,6 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2019-yil | | | 2020-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| **Qozog'iston** | 34,9 | 14,7 | 15,3 | 45,7 | 15,4 | 14,7 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 3,9 | 1,9 | 2,0 | 11,0 | 5,6 | 5,3 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | 1,9 | 28,9 | 30,1 | 3,0 | 3,8 | 3,6 |
| **Ukraina** | 1,3 | 5,3 | 5,5 | 0,8 | 0,7 | 0,7 |
| **Turkiya** | 4,2 | 1,7 | 1,7 | 0,5 | 0,6 | 0,6 |
| **XXR** | 0,2 | 0,3 | 0,3 | 0,2 | 0,3 | 0,3 |

**-qiymat ifodasidan*

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 50,7 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 51,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 2,3 marataga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (52,2 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (28,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 11 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 17 ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

| Tovar nomi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 24,6 | 17,0 | 28.0 |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 2,3 | - | 14,2 |
| Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari | 2,6 | 7,9 | 8,2 |

Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (17,0 mln. AQSh dollari – 29,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (5,8 mln. AQSh dollari – 10,1 %) va Turkiya (7,4 mln. AQSh dollari – 12,8 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI mln.AQSh dollari)

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 17,9 | 11,3 | 17,0 |
| XXR | 2,3 | 2,4 | 5,8 |
| Turkiya | 4,9 | 1,9 | 7,4 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 0,1 | 0,1 | 17,0 |
| Qozog‘iston | - | - | 0,6 |
| Polsha | 0,3 | 0,2 | 0,3 |
| Ukraina | 0,4 | 0,6 | 0,4 |
| Eron | 2,6 | 3,1 | 1,6 |
| Belarus Respublikasi | 0,8 | 1,2 | 0,5 |

# XORAZIM VILOYATINING IMPORTI
# (2020-yil yanvar-iyul)

2020-yil yanvar-iyul oylarida import hajmi 148,0 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 81,6 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (30,2 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (29,7 %) hamda kimyoviy vositalar (6,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)




2020-yilning yanvar-iyulida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 33,4 mln. AQSh dollariga kamaydi va 148,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **148,0** | **63,9** | **84,1** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 42,5 | 32,7 | 9,8 | 28,7 | 51,2 | 11,7 |
| Ichimliklar va tamaki | - | 0,0 | | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 16,3 | 12,7 | 3,6 | 11,0 | 19,9 | 4,3 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 1,5 | 1,4 | 0,1 | 1,0 | 2,3 | 0,1 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 4,7 | 4,6 | 0,1 | 3,2 | 7,2 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 7,7 | 3,4 | 4,3 | 5,2 | 5,2 | 5,1 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 9,0 | 4,2 | 4,8 | 6,1 | 6,6 | 5,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 43,3 | 3,7 | 39,6 | 29,2 | 5,8 | 47,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 23,0 | 11,1 | 21,9 | 15,6 | 1,8 | 26,1 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va transport asbob-uskunalari (29,2 %), nooziq-ovqat xomashyo, (yoqilg'idan tashqari) (51,2 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (47,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020-yil yanvar-iyul, ulushi, % da)**

| XSST tarkibi | 2019-yil yanvar-iyuliga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **81,6** | **157,7** | **59,7** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5,7 m. | 6,1 m. | 4,5 m. |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 113,4 | 97,5 | 2,7 m. |
| Mineral yoqilg‘i, yog`lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 5,0 m. | 5,0 m. | 4,4 m. |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 2,6 m. | 2,6 m. | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 121,9 | 72,8 | 2,6 m. |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 110,0 | 92,3 | 132,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 43,8 | 118,1 | 41,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 52,2 | 14,4 | 60,3 |

**XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul, 2019-yil yanvar-iyuliga nisbatan)**

Joriy davrda import qilingan tovarlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyosi importining ulushi 18,4 % dan 11,0 % gacha, kamaydi asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importining ulushi esa 6,8% dan 6,1 % ga kamaydi, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 10,4 % dan 28,7 % ga, o‘sdi.

XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul 2019- yil yanvar-iyuliga nisbatan)

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 10,4 | 4,1 | 28,7 |
| Ichimliklar va tamaki | - | 0,0 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 18,4 | 7,9 | 11,0 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,1 | 0,2 | 1,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | 1,0 | 3,2 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 9,8 | 3,5 | 5,2 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 6,8 | 4,5 | 6,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 49,5 | 54,5 | 29,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 5,0 | 24,3 | 15,6 |

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | o‘zgarish sura’tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 0,8 | 42,3 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 34,8 | 618,6 m. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 0,7 | 41,4 |
| Sabzavotlar va mevalar | 1,5 | 141,1 |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 4,7 | 2,0 m. |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | | |
| Ichimliklar | 0,0 | 0,0 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Metall rudalari va metal parchalari To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 0,8 | 73,8 |
| Probka va yog‘och-taxtalar | 12,5 | 96,8 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | - | - |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | - | - |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 3.0 | 36,2 m. |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 1,46 | 5,6 m. |

XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul 2019- yil yanvar-iyuliga nisbatan)

| | | |
|---|---|---|
| Ko‘mir, koks va briketlar | 0,04 | 92,0 |
| Elektr toki | - | - |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari | 4,7 | 2,6 m. |
| Hayvon va o‘simlik moylari va yog‘lari | - | - |
| Hayvonlar moylari va yog‘lari | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 0,9 | 2,4 m. |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 3,1 | 2,5 m. |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 1,9 | 2,1m. |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari | 1,5 | 41,9 |
| Organik kimyo moddalari | 0,3 | 173.7 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho‘yan va po‘lat | 4,5 | 179,6 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 0,9 | 81,1 |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 1,1 | 110,5 |
| Probka va yog‘ochdan tayyorlangan buyumlar | 1,4 | 144,4 |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 1,1 | 42,9 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 28,9 | 39,9 |
| Avtomobillarning ehtiyot qismlari | 0,3 | 16,9 |
| Avtomobillar, asosan yo‘lovchilarni tashish uchun mo‘ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo‘ljallangan transport vositalaridan tashqari) | 3,9 | 42,4 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | 6,4 | 53,4 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 3,0 | 112,5 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,8 | 37,1 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 1,2 | 94,2 |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 21,3 | 51,0 |
| Har xil tayyor buyumlar | 0,4 | 88,5 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | - | - |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 0,1 | 67,2 |

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining oshishi bevosita shakar va shakar xomashyosi (618,6 barobar oʻsdi), hayvonlar uchun ozuqalar (41,4 % ga), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (42,3 % ga) importining oʻsishiga taʼsir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar importi oʻsishi esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining oʻsdi (2,5 m.) hamda organik kimyo moddalari (73,7 % oʻsdi) bevosita taʼsir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulush % da)**




Hisobot davri yakunlariga koʻra, import boʻyicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 23,0 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (37,0 %) ortda qoldirgan holda, birinchi oʻrinni egalladi.

## XORAZM VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyul, % da)

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 64,4 | 34,1 | 2,4 m. | 53,0 | 1 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 26,0 | 54,8 | 137,2 | 2,1 m. | 2 | 1 |
| Koreya Respublikasi | 11,5 | 14,7 | 15,1 m. | 127,8 | 5 | 4 |
| Qozog'iston | 6,2 | 1,8 | 172,9 | 29,0 | 7 | 9 |
| Turkiya | 19,7 | 15,1 | 4,2 m. | 76,6 | 3 | 3 |
| Germaniya | 5,1 | 2,0 | 69,8 | 39,2 | 8 | 8 |
| Litva | 2,1 | 1,6 | 2,3 m. | 76,2 | 10 | 10 |
| Italiya | 4,0 | 0,1 | 2,3 m. | 2,5 | 9 | 15 |
| Hindiston | 0,6 | 2,6 | 95,1 | 433,3 | 13 | 6 |
| Latviya | 14,7 | 2,1 | 3,0 m. | 14,3 | 4 | 7 |
| Ukraina | 1,7 | 2,8 | 76,3 | 164,7 | 11 | 5 |
| Belarus Respublikasi | 1,2 | 1,2 | 66,5 | 100,0 | 12 | 11 |
| Chexiya Respublikasi | 0,3 | 0,3 | 159,0 | 100,0 | 15 | 13 |
| Niderlandiya | 9,3 | 0,4 | 11,8 m. | 4,3 | 6 | 12 |
| Qirg'iz Respublikasi | 0,6 | 0,2 | 105,4 | 33,3 | 13 | 14 |
| Fransiya | 0,4 | 0,2 | 2,1 m. | 50,0 | 14 | 14 |

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha Xorazm viloyati tomonidan 47 davlat bilan importi amalga oshirildi.

**XORAZM VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyul, % da)**




Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Qozog‘iston va Litva) jami importning 83,8 % ini tashkil qiladi, bu 124,0 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Shu o`rinda ta‘kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta’minlash bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Xorazm viloyati tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: (62) 2246509**